

*Fidoyilik –*
*Vatanga xizmat demak!*

# Zarafshon

www.zarnews.uz
https://www.facebook.com/zarnews.uz
@zarnews_uz
https://twitter.com/zarnews_uz

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

zarafshonbot

Сайтимизга ўтиш учун QR-кодини телефонингиз орқали сканер қилинг

2021-yil 29-iyun, seshanba, 75 (23.511)-son


**Кун ҳикмати**

Бир-икки кишига ёқмай қолсангиз, улардан айб қидириш мумкиндир. Лекин учинчи одам ҳам ёмон кўрса, гуноҳни ўзингиздан қидиринг



## Ўзбекистон Республикаси Давлат мустақиллигининг 30 йиллиги олдидан

# Samarqand yoshlari: yuksak maqsadlar sari



***Mamlakatimizda yoshlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularning ta'lim-tarbiya olishi, kasb-hunar egallashi uchun imkoniyatlar eshigi ochildi. 2021-yil — Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yilida bu boradagi ishlar ko'lami yana ham kengaydi.***

***Prezidentimiz tomonidan besh muhim tashabbus ilgari surildi.***

***Yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangicha tizim – «Yoshlar daftari» joriy etilib, ularning muammolari, taklif va istaklari «mahallabay» o'rganildi. Yechimi bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqilib, ijrosini ta'minlashga kirishildi.***

***(2-3-sahifalarga qarang).***



**Вилоят қурилиш бош бошқармасида Зарафшон дарёсининг қирғоқ минтақаларида қум-шағал аралашмаси қазиб олинишининг дарё ўзанига ҳамда ер ости чучук сувлари захирасига таъсирини аниқлаш бўйича тузилган вилоят ҳокимлиги ишчи гуруҳининг ўрганиш ишлари якунларига бағишланган йиғилиш бўлиб ўтди.**

# Дарёдаги тош-шағал эгасиз эмас

Танқидий руҳда ўтган муҳокамада вилоят ҳокими Э.Турдимов вилоятимизда қум-шағал кавлаб олувчи, тошни қайта ишловчи тадбиркорлар фаолияти Зарафшон дарёси ўзани ва қирғоқбўйига жиддий зарар етказаётганлигини таъкидлади.

Юртимизда қурилиш материалларига бўлган талабнинг ўсиши натижасида кейинги пайтларда Зарафшон, Оқдарё, Қорадарё ўзанларидан қум-шағал материалларини назоратсиз қазиб олиш ҳолатлари кўпайди. Бундай ҳолатлар дарё ўзани оқимига таъсир қилиб, ер усти ва ости сувларининг камайиб кетиши, сувни муҳофаза қилиш зоналари ботқоқлашиши ва ифлосланиши, суғориш тизимлари, транспорт, гидротехника ва коммуникация объектларининг бузилишига сабаб бўлмоқда. Муаммони ўрганиш мақсадида мутахассислар томонидан Зарафшон дарёси ўзани, Равотхўжа сув омборида кузатувлар олиб борилди.

— Зарафшон дарёсининг Ургут тумани Равотхўжа тўғонидан Оқдарё ва Пастдарғом туманлари ҳудудидан ўтувчи қисми ва унинг ўзанидан қум-шағал аралашмаси қазиб олинишини ўрганиб чиқдик, - дейди ишчи гуруҳ раҳбари Алишер Раимжонов. - Маълум бўлишича, бу йил дарёдаги сув ҳажми ҳар йилгидан бир неча баробар камайган. Шунингдек, йиллар давомида қум-шағал материалларининг назоратсиз қазиб олиниши натижасида дарё қирғоқларининг бузилиши ва ўзанда жойлашган айрим объектларнинг турли даражада талафот кўришига олиб келган. Ўрганишларимиз жараёнида дарё ҳамда кузатув қудуқларининг ҳозирги ҳолатини аниқлаш мақсадида GPS (STONEKS) навигация ўлчов асбоби ёрдамида дарё ўзанида топогеодезия ишлари бажарилди. Натижада, 1986 йилга нисбатан бугунги кунда дарё сатҳи 5-8 метргача чуқурлашиб кетганлиги аниқланди.

Ишчи гуруҳ томонидан қум-шағал материалларини қазиб олиш бўйича шартнома имзолаган тадбиркорларга ўзанни тозалаш ишларини белгиланган лойиҳалар ва экология ходимларининг тегишли хулосаси асосида олиб борилиши бўйича кўрсатмалар берилди.

Вилоят ҳокими ўз ишига совуққонлик билан қараган фавқулодда вазиятлар бошқармаси қошидаги "Хавфсиз дарё" ДУК ҳамда Чўпонота сув иншооти раҳбарларини ўз вазифасидан озод қилишни таклиф қилди. Зарафшон дарёсидан қум-шағал маҳсулотларини ноқонуний равишда қазиб олаётган тадбиркорлар фаолиятига чек қўйиш бўйича мутасадди ташкилотларга топшириқлар берилди.

**Дилмурод ТЎХТАЕВ.**

*Эътироф*

**Ўтиш даври билан боғлиқ сабаблар туфайли бугунги кунда бир қатор босма нашрларнинг молиявий аҳволи мураккаб бўлиб қолаётгани ҳаммамизга яхши маълум. Яқинда ўзининг янги раҳбарини сайлаган Ўзбекистон Журналистлари ижодий уюшмасининг Олий Мажлис Қонунчилик палатаси, Вазирлар Маҳкамаси, Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, республикамиздаги етакчи газета ва журналлар бош муҳаррирлари билан биргаликда мазкур масалани атрофлича муҳокама қилиб, тегишли чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш ҳақидаги таклифларини биз албатта маъқуллаймиз.**

**Ушбу ҳужжатда босма оммавий ахборот воситаларини қўллаб-қувватлашга оид амалий чора-тадбирлар билан бирга, соҳага бозор иқтисодиёти механизмларини тўлиқ жорий этиш, мазкур нашрларнинг мазмуни ва жозибадорлигини янада ошириш, уларнинг ахборот майдонида рақобатбардош бўлиши учун мавжуд имкониятлардан унумли фойдаланиш масалалари кўзда тутилиши мақсадга мувофиқдир.**

***Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига йўллаган табригидан.***

# Газета яшайди

**Босма нашрлар фаолияти ҳар доим ҳам осон ва силлиқ кечмади. Мураккаб вазиятлар, қийин паллаларни бошдан кечирган кунларимиз кўп бўлди. Аммо шундай пайтларда ҳам газетамизни ўқийдиган, қўллаб-қувватлаган тумандошларимиздан куч олганмиз.**



Кўпчилик туман газетасига ўзгача назар билан қарашини ҳам сезганмиз. Лекин эътибор берадиган бўлсак, республикага таниқли аксар ижодкорлар, журналистларнинг қалами туман газеталарида чархланган. Ҳали мактаб ўқувчилиги пайтиданоқ туман газетасига мақола, шеърларини кўтариб келиб, шу ерда устозлари ўгитлари туфайли ўз йўлини топиб, бугун республикага таниқли журналист бўлган.

Умуман, 45 йиллик фаолиятим давомида мени соҳам ортидан қувонтирган, ташвишлантирган ҳолатлар кўп бўлган. Журналистика, газетачилик орқали нон топиш ҳеч қачон осон бўлмаган. Айниқса, техника ҳозиргидай ривожланмаган пайтлар газетани чоп этиш масаласида қатор қийинчиликлар бўлса, арзон шов-шув, ахборотга ўчлик пайдо бўлган, интернет журналистикаси тобора оммалашиб бораётган, сифатли журналистикага, босма нашрларга қайсидир маънода эҳтиёж сусайгандай бўлган ҳозирги пайтда туман газетаси нуфузини кўтариш, ўқувчига маъқул ҳолатда нашр этиш яна бир масала. Аммо қувонарлиси, туманимиз газетасида устоз-шогирдлик анъаналари сақланиб қолгани, ёшларнинг бу даргоҳга интилиши сўнмаганида.

Айни кунда таҳририятимизда 5 нафар олий маълумотли журналист кадрларнинг меҳнат қилаётгани таҳририят раҳбари сифатида мени хурсанд қилади. Шу йилнинг ўзида олий таълим муассасаларидан ўнга яқин талаба газетамизда амалиёт ўтади. Таҳририят биноси туман ҳокимлиги томонидан капитал реконструкция қилиниб, моддий-техник базаси яхшиланди, яъни таҳририят ходимлари учун қулай шарт-шароитлар яратилган.

Эътиборлиси, бу йил 27 июнь - Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари куни муносабати билан мамлакатимиз раҳбари йўллаган табрикни бевосита пойтахтда ўтказилган анжуманда ҳамкасблар билан эшитдим. Унда заҳматли меҳнатимиз ҳақида илиқ фикрлар билдирилиши баробарида босма нашрларни қўллаб-қувватлашга оид мужда узоқ йил газета соҳасида меҳнат қилган журналист сифатида қалбимни тўлқинлантирди. Айниқса, камтарона меҳнатларим инобатга олиниб, давлатимизнинг юксак мукофоти - "Меҳнат шуҳрати" орденига сазовор бўлганим кучимга куч қўшди. Мукофотни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати раиси Танзила Норбоева қўлидан оларканман, бу фақат менга эмас, жамоамиз, Самарқанд журналистикасига берилган мукофот, деб билдим.

Ноанъанавий тарзда ўтказилган анжуманда айнан Иштихон тумани газетасида қалами чархланиб, бугун республикага машҳур шогирдлар, ҳамкасблар билан дийдорлашдик. Байрам ижодкорларга хос ижодкорона муҳитда ўтгани билан эсда қоларли бўлди.

**Гулчеҳра УСМОНОВА,**
**"Иштихон овози" газетаси муҳаррири, "Меҳнат шуҳрати" ордени соҳибаси.**



# УНУТИБ ҚЎЙМАДИНГИЗМИ?

***Республика махсус комиссиясининг 2021 йил 22 мартдаги 67-сон баёни билан 2021 йил 1 апрелдан бошлаб тўйхоналарда оилавий тантана, тўй, маърака ва маросимларни ўтказиш 100 кишидан кўп бўлмаган (яқин қариндошлар ва ушбу туман ҳудудида истиқомат қилувчи бошқа қариндошлар) ҳамда санитария ва гигиена талабларига қатъий риоя этган ҳолда ўтказилиши белгиланган.***

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 54-моддасида карантинли ва инсон учун хавфли бўлган бошқа юқумли касалликлар пайдо бўлиши ёки тарқалишининг олдини олиш мақсадида белгиланган мажбурий қоидаларни бузганлик учун фуқароларга – базавий ҳисоблаш миқдорининг йигирма баравари, мансабдор шахсларга эса ўттиз баравари миқдорида жарима солинади.

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 192(1)-моддасида тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар ўтказиш талабларига риоя этмаганлик учун:

– ушбу тадбирларни ўтказувчи фуқароларга – базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн баравари миқдорида;

– тўйхоналар, кафе ва ресторанларнинг мансабдор шахсига – базавий ҳисоблаш миқдорининг ўттиз баравари миқдорида ҳамда шу каби ҳуқуқбузарлик маъмурий жазо чораси қўлланилганидан кейин бир йил давомида такрор содир этилганда – базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик баравари миқдорида жарима солиниши белгиланган.

Жорий йилнинг 28 июнидан бошлаб республика бўйлаб кўнгилочар объектлар – ресторан, тунги клублар, дискотека, караоке, бильярд заллари ва компьютер ўйинлари марказлари ҳамда умумий овқатланиш объектлари – кафе, ошхона, чойхоналар соат 8:00 дан 20:00 гача фаолият кўрсатади.

Кўнгилочар ва умумий овқатланиш объектларида ташриф буюрувчиларга ушбу муассасаларнинг умумий сиғимининг 50 фоизидан қатъий оширмаган ҳолда хизмат кўрсатилади.

# Хорижий экспертлар мева-сабзавотчиликни ривожлантиришга кўмаклашади

**Мева-сабзавочилик тармоғи мамлакат ялпи ички маҳсулотининг 8,7 фоизини ташкил қилади. Тармоқни янада ривожлантириш учун хорижий инвестициялар, халқаро ташкилотларнинг кредит ва грант маблағлари жалб этилмоқда. Жумладан, Халқаро тикланиш ва тараққиёт банки иштирокида "Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавотчилик тармоғини ривожлантириш" лойиҳаси ҳам амалга оширилмоқда.**

Лойиҳанинг "Ўзбекистонда мева-сабзавотчилик технологиялари бўйича техник кўмак" қисми Франциянинг "Sofreco Group" ва Ўзбекистондан "Global Advisors" консалтинг компанияларидан иборат консорциум томонидан ҳаётга татбиқ этилмоқда.

Вилоят қишлоқ хўжалиги бошқармасида хорижий экспертлар ва лойиҳа иштирокчилари соҳани ривожлантириш, истиқболдаги режалар, белгиланган ишлар юзасидан вилоятимиздаги аграр соҳа мутахассислари билан учрашиб, ўзаро фикр алмашишди.

– Мазкур лойиҳа доирасида Ўзбекистон қишлоқ хўжалигига техник ёрдам кўрсатиш мақсадида 2018 йилда Европа Иттифоқи томонидан 19,5 миллион евро миқдоридаги грант маблағи ажратилган эди, - дейди италиялик эксперт, фан доктори, инженер Ружжеро Малосси. - Бу республика қишлоқ хўжалиги соҳасида тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантириш, фермерларга зарур технологиялар, ахборотларни етказиб бериш, маҳсулот сифати бўйича халқаро стандартларни жорий қилиш ҳам режалаштирилган.

Уч йилга мўлжалланган мева-сабзавотчилик технологиялари бўйича техник кўмак лойиҳаси Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини 2030 йилгача ривожлантириш ва мамлакатнинг экспорт салоҳиятини ривожлантириш стратегияларига мос равишда олиб борилади. Мазкур лойиҳа замонавий усуллар ва технологиялар ёрдамида мева-сабзавотчилик маҳсулотларини етиштириш, сақлаш, саралаш ва қадоқлаш бўйича кўргазма майдонларини ташкил қилишга кўмаклашади. Соҳада замонавий технологияларни жорий қилиш, мева-сабзавотчилик тармоғининг ҳосилдорлиги ва рентабеллигини оширишда қатнашади. Селекция, уруғчилик ва ўсимликларни ҳимоя қилиш соҳасидаги илмий-текшириш институтлари салоҳиятини модернизация қилади.

**Ў.ХУДОЙБЕРДИЕВ.**

# Индаллосини айтганда...



Қонун дегани аслида кимгадир ниманидир тушунтирмайдиган, илтимос қилмайдиган ҳуқуқли ҳужжатдир. Бинобарин, унинг ҳар битта моддасида бажармаса бўлмайдиган амаллар ёзилиши керак.

Қонунда тавсиявийликдан кўра, мажбурият устувор бўлиши керак эмасми?

**Қозоқбой ЙЎЛДОШЕВ,**
**педагогика фанлари доктори, профессор.**

# Yoshlar band bo‘lsa...



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularning bandligini ta’minlash bilan ko‘pgina muammolarga yechim topish mumkin. Shu bois tizim orqali “Yoshlar dasturi” doirasida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning o‘tgan davrida 55 ming 378 nafar ishsiz yoshlardan 29 ming 724 nafarining bandligi ta’minlandi. 6735 nafar yoshga tadbirkorlik qilishi uchun 158 milliard 195 million so‘m kredit mablag‘lari ajratildi.

13 ming 315 nafar yoshga 3459 gektar yer maydonlari o‘lchab berildi. 1118 nafar yigit-qiz 3 milliard 180,6 million so‘m miqdorida subsidiya oldi.

Yoshlar ishtirokida 7 mingga yaqin madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilib, ularda 380 ming nafardan ziyod yoshlarning ishtiroki ta’minlandi.

Vatanimiz mustaqilligining 30 yilligi hamda 30 iyun – Yoshlar kuni oldidan o‘tkazilayotgan oylik doirasida «Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!» shiori ostidagi festival viloyatimizda yuqori saviyada tashkil etildi. Tadbirlarga 1 million 500 mingga yaqin yoshlar qamrab olindi.

Bugungi kunda yoshlar uchun 402 ta obyekt foydalanishga topshirilgan. Ularning 341 tasi “Street Work Out”, 12 tasi “Street Ball” maydonchasi, 6 tasi raqamli texnologiyalar o‘quv markazi, 5 ta kutubxona va bukkafelar hamda 38 ta yoshlarga oid boshqa obyektlardir. Yoshlar kuni arafasida viloyatimizning chekka hududlarida, ya’ni Qo‘shrabot va Nurobod tumanlarida yoshlar markazi binolari foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

**Husan TO‘XTAYEV,**
**Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i.**

# Daftarga nomiga kiritilmagan

**Yoshlarimizni qiynab kelayotgan masalalarga yechim topish maqsadida “Yoshlar daftari”ni shakllantirish uchun viloyatimizda 655 ming nafarga yaqin yigit-qizlar orasida anketa so‘rovlari o‘tkazildi.**



Natijada 69 mingdan ziyod yoshlarni ishsizlik va boshqa turli muammolar qiynayotgani aniqlandi hamda ular “Yoshlar daftari”ga kiritildi, 31 ming 894 nafarining masalasi ijobiy hal etildi.

Asosan, band bo‘lmagan yoshlarni ish bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik, hunarmandlik, “Har bir yoshga bir gektar” loyihasi doirasida yer ajratish, doimiy va mavsumiy ishlarga jalb etish orqali ularning bandligini ta’minlashga erishilmoqda. Nurobod tumani Ulus mahalasida yashovchi Farhod Jo‘raevni ham ko‘p yildan beri ishsizlik muammosi qiynab kelardi.

– Kollejni bitirib, mutaxassisligim bo‘yicha ish topolmay sarson bo‘ldim, – deydi u. – Xorijga ketib ishlab kelaman, deb turganimda mahallada “Yoshlar daftari”ga kiritishdi. Oradan ko‘p o‘tmay qishlog‘imizdagi men kabi 27 nafar yigitga fermer xo‘jaliklar yeridan 50 sotixdan ekin maydoni ajratildi. Mahalla oqsoqoli tashabbusi bilan homiylar yordamida urug‘ va ko‘chatlar yetkazib berildi. Hozirgi kunda bu yer maydonida kartoshka, pomidor, makkajo‘xori va boshqa ekinlar yetishtiryapmiz.

**Baxtiyor MUSTANOV.**

***Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Samarqand viloyati filiali qoshida davlat xizmati uchun yangi avlod kadrlarini shakllantirish maqsadida tajriba-sinov tariqasida “Kelajak liderlari” klubi tashkil etilgan.***

# «Kelajak liderlari» kelajakni o‘ylab...

Undan ko‘zlangan asosiy maqsad davlat xizmati uchun yangi avlod kadrlarini shakllantirish, yoshlarni, ayniqsa, yosh xotin-qizlarni davlat xizmatiga keng jalb qilish, davlat xizmatining jozibadorligini oshirish hamda istiqbolli kadrlardan rahbarlik lavozimlariga zaxira shakllantirishdan iborat.

Klub a’zolari to‘rt bosqichda saralab olindi. Nizomda belgilangan talab asosida nomzodlar orasidan eng munosib 50 nafar lider yoshlar klubi a’zoligiga qabul qilindi. Ularning 18 nafari oliy ta’lim muassasalari talabalari bo‘lsa, 32 nafari davlat fuqarolik xizmatchilaridan iborat.

– Faoliyatimiz davomida jamiyat taraqqiyotiga g‘ov bo‘layotgan muammolar, yechimini kutayotgan masalalar bilan o‘z fuqarolik pozitsiyamizni namoyon qilgan holda ishlab, yechimini topishga harakat qilmoqdamiz, – deydi klub prezidenti Elbek Berdiyev. – Misol uchun, viloyatning barcha hududlarida sektorlar rahbarlari bilan aholi o‘rtasidagi uchrashuvlar natijalari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazyapmiz. Klubimiz a’zolari tashabbusi bilan «Biz birgamiz» loyihasi doirasida Ishtixon tumani prokuraturasi hamkorligida tumanning Chag‘atoy mahallasidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta’minlangan oila a’zolari uchun Samarqanddagi tarixiy obidalarga sayohat uyushtirildi. Bundan tashqari, klubning har bir a’zosiga og‘ir hududlarda istiqomat qiluvchi «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari»ga kiritilgan fuqarolarning murojaatlarini o‘rganyapti. Aniqlangan muammo va kamchiliklar bo‘yicha tegishli mutasaddilarga murojaat qilinyapti va ularga yechim topilmoqda.

**Sarvinoz TURSUNOVA.**

# Urgutda to‘plangan tajriba

*yosh tadbirkorlarga qo‘l kelyapti*

***Urgutda tadbirkorlik bo‘yicha boy tajriba to‘plangan. Shuning uchun ham tuman yoshlari orasida ishbilarmon yigit-qizlar ko‘p. Ular shu yo‘l bilan ham o‘zlarining, ham tengdoshlarining bandligini ta’minlashga harakat qilishadi.***



– Tumanda 2002 nafar yigit-qiz “Yoshlar daftari”ga kiritilgan, – deydi Urgut tumani hokimi o‘rinbosari J.Haydarov. – Ularning 488 nafari doimiy va jamoat ishlariga joylashtirildi. 449 nafariga tadbirkorlik qilishlari uchun 11 milliard 499 million so‘m kredit mablag‘lari ajratildi. Shuningdek, “Yoshlar: 1+1” dasturi doirasida 387 nafar yigit-qiz tadbirkor va hunarmandlarga biriktirildi va 311 nafari tadbirkorlikka o‘qitilib, sertifikatlar topshirildi. 29 nafariga 65,2 million so‘m miqdorida subsidiya ajratildi. Albatta, yoshlarga yaratilayotgan bunday imkoniyat ularning tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda muhim omil bo‘lmoqda.



Tadbirkorlik, tomorqachilik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan yoshlarga bank tomonidan zarur yordam ko‘rsatilyapti.

– Bankimiz tomonidan shu yilning o‘tgan davri mobaynida yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 323 nafar yigit-qizga 8,4 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratildi, – deydi “Mikrokreditbank” Urgut filiali bo‘lim boshlig‘i Abduhalim Nuriddinov. – Natijada 400 ga yaqin yoshlar o‘zi istagan yo‘nalishda tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Yoshlarga dehqonchilik, parrandachilik, chorvachilik, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun ham naqd pul shaklida kreditlar ajratildi.

Tumandagi Gulobod mahallasida yashovchi Ilhom Shodiyev “Marhaboxonim chevarlari” nomli oilaviy korxonani tashkil etib, mahallasidagi 20 nafar xotin-qizni ish bilan ta’minladi.

– Joriy yil mart oyida bankdan 220 million so‘m kredit olib faoliyatimni boshladim, – deydi yosh tadbirkor. – Hozir korxonamizda xotin-qizlar kiyimlari tayyorlab, bozorga chiqaryapmiz. Kelgusida erkaklar kiyimlari ham tikishni yo‘lga qo‘yib, mahsulotlarimizni xorijga eksport qilishni rejalashtiryapmiz.

Andak mahallasida istiqomat qiluvchi Rahimjon Boymurodov “Mikrokreditbank” Urgut filialidan 29 million so‘mlik imtiyozli kredit olib, tuman markazida sartaroshxona ochdi.

– Qo‘limda hunarim bor, ammo sartaroshxona ochishga mablag‘im yo‘q edi, – deydi R.Boymurodov. – Mahallamizda o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlaridan birida bank xodimlari tomonidan berilgan ko‘rsatmalarga asosan tavakkal qilib ishga kirishdim. Natija yomon bo‘lmadi, sartaroshxona ochganimga hali bir yil bo‘lmasa-da, faoliyatimni kengaytirib, 4 kishini ish bilan ta’minladim. Shuningdek, tengdoshlarimga sartaroshlikni o‘rgatib, shogirdlar tayyorlayapman.

**Fazliddin RO‘ZIBOYEV.**

*Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, muvaffaqiyatga erishish sirlaridan voqif qilish, tajriba almashish maqsadida Samarqand shahridagi Registon maydonida tashkil etilgan marafon 6 soat davom etdi. Yoshlar oyligi doirasida o‘tkazilgan tadbirda tadbirkorlikka qiziquvchi 4 mingdan ziyod endigina tadbirkorlik faoliyatini boshlagan yigit-qizlar ishtirok etdi. Respublikamizdagi nufuzli kompaniya va loyihalar asoschilari bo‘lgan 14 nafar taniqli tadbirkor «Biznes marafon» mehmoni bo‘ldi.*



# 6 soat davom etgan «Biznes marafon»

*ishtirokchilarga nima berdi?*

– Pandemiya iqtisodiyotga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatishi bilan bir qatorda, odamlarni yaxshi yashashga o‘rgatdi, – deydi samarqandlik yosh tadbirkor, “Government Industrial Company” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari Shohruh Ibodov. – Ayniqsa, tadbirkorlarga onlayn platforma orqali savdo-sotiqni amalga oshirishni o‘rgatdi. O‘tkazilgan “Biznes marafon”da ishtirok etgan spikerlarning aksariyati shu yo‘nalishda faoliyat olib borib, muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar ekan. Ulardan biri “SAP” savdo direktori Laziz Adhamov onlayn platformaning qulaylik tomonlari, 14 yoshli qizining shu yo‘nalishda tadbirkorlik qilib oyiga 4-5 million so‘m daromad qilayotgani xususida gapirib berishi ko‘pchilikni qiziqtirdi.




Samarqandda ilk bor keng miqyosda o‘tkazilgan “Biznes marafon” munozaralarga boy bo‘ldi. “Yoshlar-kelajagimiz” jamg‘armasi ijrochi direktori Xayrulla Sattarov, “Dekos.uz” kompaniyasi hamda “MFaktor” loyihasi asoschisi Hasan Mamasaidov, “Deli.uz” asoschisi Husan Mamasaidov, “Asaxiy.uz” internet do‘koni asoschisi Feruzbek Allayev va boshqa taniqli tadbirkorlar yoshlarning savollariga javoblar qaytardi.

**Ashurali TO‘YCHIYEV.**

*30 ta sport muassasalarida sportning 48 turi bo‘yicha sport to‘garak (seksiya)lariga 27 ming 965 nafar, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 27 sport turi bo‘yicha to‘garaklarga 104 ming 266 nafar yoshlar qamrab olingan.*

***Abduvali Ergashev Kattaqo‘rg‘on tumanidagi yosh tadbirkorlardan. U o‘zi yashayotgan hududda ilmli, iqtisodchi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor tadbirkorlar safi kengayishini istaydi va shu maqsad yo‘lida harakat qiladi, izlanadi.***

# “Start up” loyiha uchun 202 million so‘m




Yosh tadbirkor “Yaponiyaning AKT xizmat ko‘rsatish sohasi” nomli loyihasi bilan Samarqand yoshlarining innovatsion g‘oyalari va “start up” loyihalarini qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida o‘tkazilgan tanlovda g‘olib bo‘lib, 202 million so‘mlik mablag‘ni qo‘lga kiritdi.

– Loyihaning maqsadi tengdoshlarimga yapon axborot texnologiyalari ta’lim standartlari asosida zamonaviy bilim berish va ularni ish bilan ta’minlash, – deydi A.Ergashev. – Buning uchun Yaponiyaning «Beeanz.Inc.» va «Gakkou plus» kompaniyalari bilan hamkorlikda «Zarafshan-Uchiyama System» xorijiy korxonasi negizida «Yamato IT-Academy» ta’lim markazi tashkil etilgan.

Ushbu loyiha orqali 3 yillik dastur doirasida ishtirokchilar bepul o‘qitilib, 1-kursdan so‘ng «online» ishlash 3-kurs yakunidan keyin nafaqat O‘zbekiston, balki Yaponiya va dunyoning bir qator rivojlangan davlatlari korxonalarida amaliyot o‘tash hamda doimiy ish joyiga ega bo‘lish imkoniyatini qo‘lga kiritishadi.

**G‘ofirjon BOBOBEKOV.**

# «Haykaltaroshlikni otamdan o‘rganganman»

*Past Darg‘om tumani Elbek mahallasida yashovchi Dilshod Abdurayimov 2014-yildan buyon haykaltaroshlik bilan shug‘ullanadi. Dilshod haykaltaroshlikni otasi Shuhrat Xoliqovdan o‘rgangan.*







– Haykaltaroshlik nozik, mas’uliyatli ish, – deydi D.Abdurayimov. – Hozirgi kunda bolalar bog‘chasi, oshxona, restoran, korxona va tashkilotlar buyurtmasi asosida sement-betondan turli ertak qahramonlari, hayvonlar, hasharotlar haykalini yasayman. Shuningdek, jiyanlarimga, mahallamizdagi yoshlarga ham bu hunarning sir-asrorlarni o‘rgatyapman.

D.Abdurayimov 2019-yilda Past Darg‘om maishiy-xizmat kasb-hunar kolleji chilangarlik yo‘nalishini bitirib, «Hunarmandlar» uyushmasiga a’zo bo‘ldi.

**Sulaymon MARDIYEV.**

# Ham san’atga, ham sportga oshno yigit

Toyloqlik Shohruh Nishonov san’atning an’anaviy xonandalik yo‘nalishi bo‘yicha yuqori marralarni zabt etib kelayotgan yoshlardan biri. U 2015-yilda “Yagonasan, muqaddas Vatan” respublika tanlovida 1-o‘rinni egalladi. 2017-yilda esa Qozon shahrida bo‘lib o‘tgan «Живой родник» ko‘rik-tanlovida 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, Ozarbayjonning Boku shahrida o‘tkazilgan “Mug‘om – 2017” X xalqaro bolalar musiqa festivalida 3-darajali diplom bilan taqdirlandi.



– Bolaligimdan sport va san’atga qiziqishim kuchli, – deydi Sh.Nishonov. – San’atning an’anaviy xonandalik yo‘nalishi bo‘yicha ozmi-ko‘pmi yutuqlarga erishdim. Ammo bu hali hammasi emas. O‘z ustimda ishlashda, izlanishda davom etaman.

**Nozima KARIMOVA.**

# «Kuygan nonlarni bobomga pullaganman»

***Onamning 6 nafar qizi bor. O‘g‘li bo‘lmagani uchun dadam bilan ajrashib, ota uyiga kelib yashashga majbur bo‘lgan. Bobom va tog‘alarimning ko‘magi tufayli birovdan kam bo‘lmadik. Katta opam hunarmand, yana biri talaba. Men o‘tgan yili maktabni bitirdim, ammo tadbirkorlikni boshlaganimga 2 yildan oshdi. Singillarim esa hali o‘quvchi.***

2018-yilda “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilayotganini eshitib, tegishli tashkilotlarga murojaat qildim. Zarur hujjatlarni taxt qilib bankka borganimda, to‘g‘risi, u erdagilar mening bo‘y-bastimga qarab, “hali maktab o‘quvchisi bo‘lsang, kreditni qaytarishda qiynalmasligingga ko‘zimiz etmaydi“, deyishgandi.

Buni vaqt ko‘rsatadi, degan edim o‘sha paytda. 125 million so‘m miqdorida imtiyozli kredit oldim. 17 yoshimda oilaviy korxonaning rahbari bo‘lib, qolipli non ishlab chiqarish sexini tashkil qildim.

Avvaliga bir kunda 300-400 ta non pishirardim. Ko‘p qiyinchiliklarni boshimdan o‘tkazdim. Bolaligimizda ayam tandirda non yopsa biz ham loy yoki plastilindan tandir va nonlar yasab o‘ynardik. Ammo tadbirkorlik o‘yin emas ekan. Ba’zida unga qo‘shiladigan suv yoki tuzning miqdorida adashgan bo‘lsam, ba’zida issiqlik me’yori oshib ketib, nonlar qorayib qolardi. Sifatsiz chiqqan nonlarimizni bobom baliqlari uchun ozuqa sifatida sotib olardi. Bepul olavering, desam unamasdi. Xullas, kuygan nonlarni bobomga pullaganman.

Keyinchalik hammasi iziga tushib ketdi. Kreditni qaytarishdagi qiyinchiliklar ham ortda qoldi. Orada haydovchilikka o‘qidim. “Damas” avtomashinasi sotib oldim.




Bugungi kunda sexda 5 nafar tengdoshim ish bilan band. Kuniga ikki navbatda 2 mingdan ziyod qolipli non tayyorlayapmiz va tumanimizdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari, do‘konlar, supermarketlarga yetkazib beryapmiz. Bundan tashqari buyurtma asosida to‘ylar uchun non va patirlar ham pishiramiz. Kelgusida faoliyatimizni kengaytirib, qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqchimiz.

**Mohichehra ABRIYEVA,**
**Ishtixon tumani.**

# Bu yil kirish imtihonlarida abituriyentlar uchun qanday o‘zgarishlar kutilmoqda?

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan davlat buyurtmasi parametrlari bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha:**

– kunduzgi ta’lim shakliga – 113 530 nafar;
– sirtqi ta’lim shakliga – 37 675 nafar;
– kechki ta’lim shakliga – 6 550 nafar;
– magistrlar tayyorlash bo‘yicha – 12 900 nafar;
– filiallar va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida davlat granti asosida kadrlar tayyorlash bo‘yicha – 500 nafar miqdorida tasdiqlandi.

Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo‘lgan xotin-qizlar uchun bakalavriatning kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha qo‘shimcha 2000 ta davlat granti asosida qabul parametrlari ajratiladi.

2021-2022-o‘quv yili qabulida abituriyentlarni ro‘yxatdan o‘tkazish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz sayti) hamda Davlat test markazining my.dtm.uz sayti orqali amalga oshiriladi. Ro‘yxatga olish joriy yilning 22-iyuliga qadar (22-iyul kuni ham) davom etadi va abituriyentlar 22-iyulga qadar o‘z ma’lumotlarini o‘zgartirishlari hamda chet tilidan milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo‘ladigan bo‘lsa, sertifikat ma’lumotlarini kiritishlari mumkin bo‘ladi.

2021-2022-o‘quv yili qabulida abituriyentlarga test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi hamda fanlar ketma-ketligi bir xil bo‘lgan beshtagacha bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi. Shu o‘quv yildan boshlab abituriyentlarga ro‘yxatdan o‘tish jarayonida tanlagan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari ustuvorligiga qarab dastlab davlat granti, keyinchalik to‘lov-kontrakt asosida tanlovda ishtirok etish bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyat beriladi.

Buning uchun abituriyentlarga onlayn ro‘yxatdan o‘tish vaqtida tanlov uchun ustuvorlik sifatida davlat granti yoki davlat granti va to‘lov-kontraktdan birini tanlash imkoniyati yaratiladi.

Bunda abituriyent ustuvorlik sifatida davlat grantini tanlasa – dastlab davlat granti, so‘ngra to‘lov-kontrakt asosida;

Davlat granti va to‘lov-kontraktni tanlasa – oldingi yillardagi kabi davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida tanlagan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ketma-ket tanlovda ishtirok etadi.

2021-2022-o‘quv yili qabulida davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura (klinik ordinatura) mutaxassisliklariga o‘qishga qabul qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda davlat oliy ta’lim muassasasi tomonidan tanlangan mutaxassislikka mos fanlar bo‘yicha kirish imtihonlari, ikkinchi bosqichda Davlat test markazi tomonidan chet tili bo‘yicha test sinovlari o‘tkaziladi. Chet tili bo‘yicha tegishli darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega abituriyentlar ikkinchi bosqichda test sinovini



topshirishdan ozod qilinadi va ularga mazkur fan bo‘yicha maksimal ball beriladi.

Magistratura mutaxassisligiga mos fanlar bo‘yicha imtihonlar natijalari imtihon o‘tkazilganidan keyin uch kun muddatda davlat oliy ta’lim muassasasi tomonidan idoralararo elektron axborot almashinuv tizimi orqali Davlat test markaziga taqdim etiladi hamda mazkur muassasaning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi. Abituriyentning chet tili bo‘yicha test sinovidan to‘plagan ballari to‘g‘risida ma’lumot test sinovlari o‘tkazilgan kunning ertasiga hamda magistratura qabuli bo‘yicha tanlov natijalari test sinovlari to‘liq yakunlangandan so‘ng bir hafta muddatda Davlat test markazining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

Alohida iqtidor talab etiladigan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga kirishda majburiy uchta fandan test sinovlari o‘tkaziladi.

2021-2022-o‘quv yili qabulidan boshlab alohida iqtidor talab etiladigan ta’lim sohalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilishda abituriyentlar uchun kasbiy (ijodiy) imtihonlardan so‘ng majburiy uchta: ona tili (o‘zbek, rus yoki qoraqalpoq tili), matematika, o‘zbekiston tarixi fanlari bo‘yicha Davlat test markazi tomonidan test sinovlari o‘tkaziladi.

Imtihonlarsiz o‘qishga kirish bo‘yicha imtiyozga ega abituriyentlar qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Hozirga qadar Zulfiya nomidagi davlat mukofoti laureatlari, “Nihol” mukofoti sohiblari, “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohiblari, “Tarbiyachi” ko‘rik-tanlovi g‘oliblari, “Hamshira” respublika tanlovi g‘oliblari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faol a’zolari, Xalqaro olimpiadalar g‘oliblari imtihonlarsiz umumiy qabul parametrlari doirasida davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinar edi.

2021-2022-o‘quv yili qabulidan boshlab qonunchilik hujjatlariga muvofiq oliy ta’lim muassasalariga imtihonlarsiz davlat granti asosida o‘qishga kirish bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan shaxslar umumiy qabul parametrlaridan tashqari qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

**Samariddin SUYUNOV,**
**DTM Samarqand viloyati bo‘limi yetakchi mutaxassisi.**




## O‘ZBEKISTON YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI SAMARQAND VILOYATI BOSHQARMASINING VILOYAT YOSHLARIGA BAYRAM TABRIGI

*Assalomu alaykum, aziz samarqandliklar, mamlakat tayanchi bo‘lgan aziz yoshlar!*

*Bugungi kunda viloyatimiz aholisining 60 foizga yaqinini yoshlar tashkil etadi. Ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va hayotda o‘z o‘rinlarini topishlariga ko‘maklashish borasida ulkan amaliy ishlar qilinmoqda.*

*Yaratib berilayotgan imkoniyatlar natijasida viloyatimiz yoshlari o‘tgan bir yil davomida fan, ta’lim, sport, madaniyat , tadbirkorlik va boshqa sohalarda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi.*

*2017-yilda Prezidentimiz tashabbuslari bilan 30-iyun sanasi mamlakatimizda «Yoshlar kuni» sifatida belgilandi. Bu kun yoshlar uchun bayram bo‘lishi bilan birga, ularni yangi, yuksak marralarga chorlayapti, jonajon Vatanimizga sadoqatini namoyon qilishga undamoqda.*

*O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz yilligi munosabati bilan joriy yilning 11-13-iyun kunlari viloyatimizda ham **“Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!”** shiori ostida yoshlar festivali o‘tkazildi va mazkur tadbirlardada barcha yoshlarimiz faol ishtirok etdi.*

*Aziz yoshlar! Sizlarni 30-iyun - Yoshlar kuni bayrami bilan samimiy muborakbod etamiz!*

*Jonajon Vatanimiz taraqqiyoti yo‘lidagi faoliyatingizda zafarlar yor bo‘lsin! Sizlarni yoshlikning eng qaynoq harorati, quvonchi va shijoati aslo tark etmasin!*

**Samarqand shahrida «Shoirlar bog‘i» qayerda joylashganligini ko‘pchilik bilmaydi. Sababi, shu paytga qadar baxshi bobolarimiz haykallari o‘rnatilgan mazkur xiyobonda tadbirlar, ya’ni adabiyot kechalari, mushoiralar deyarli o‘tkazilmagan. Yaqinda samarqandlik iste’dodli yosh shoirlar tashabbusi bilan “She’ryuraklar” deb nomlangan to‘garak tashkil etildi va uning a’zolari taklifiga asosan O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi tomonidan bog‘da she’riyat oqshomi o‘tkazilishi belgilandi.**

# "Shoirlar bog'i"dagi mushoira



Ilk bor o‘tkazilgan kecha “Yoshlar oyligi” doirasida tashkil etilib, unda 30 ga yaqin yosh ijodkorlar hamda mehmon sifatida ustoz shoirlar ishtirok etdi.

— Bugun “She’ryuraklar”ning ilk mushoirasi, - deydi shoira Dilnoza Ahrorova. – Bunday uchrashuvlar adabiyotning o‘lmasligi, barhayotligini eslatadi. Yoshlarning vaqtini mazmunli o‘tkazishga, ijodkorlarni birlashtirishga, ularga ilhom bag‘ishlashga xizmat qiladi. Bu she’riyat oqshomi Samarqand adabiy muhitining yangi bosqichga chiqishida muhim rol o‘ynaydi.

Nazm kechasi navosiz o‘tmadi. Ko‘chadan o‘tayotib, mushoiraga qiziqib qolgan havaskor san’atsevar yoshlardan biri musiqa asbobini qo‘liga olib, bir juft qo‘shiq kuylab berdi.

Shuningdek, Registon maydonidan chiqib, Amir Temur maqbarasini ziyorat qilishga yo‘l olgan qozog‘istonlik sayyoh ham tadbir ishtirokchisiga aylandi.

— Turmush o‘rtog‘im bilan Samarqandga sayohatga kelib, tasodifan mushoirada qatnashayotganimdan xursandman, - deydi Dilnoza Ahmedova. – Bu yerda ishtirok etayotgan yosh ijodkorlarning kitoblari chop etilishi va ular qozoq tiliga ham tarjima qilinshini istayman.

Bu tadbir har oyda bir marta o‘tkazilishi belgilab olindi.

**To‘lqin SIDDIQOV**

# Bokschi Nigina

***o‘zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi jahon chempioni***

Ishtixonlik Nigina O‘ktamova 2021-yil 23-aprelda Polshada bo‘lib o‘tgan boks bo‘yicha jahon chempionatida qatnashib, o‘zbek ayollari ichida birinchi jahon chempioni nomiga sazovor bo‘ldi.

– To‘rt yildan buyon ushbu sport turi bilan shug‘ullanaman, - deydi N.O‘ktamova. – Ilk bor tog‘am meni umid bilan boks zaliga yetaklab kelgan edilar. Bugun ota-onam, ustozlarim ishonchini oqlashga harakat qilyapman. O‘zbekistonga qaytib kelganimda, yurtdoshlarim ko‘tarinki ruhda kutib olishi meni hayajonga soldi. Tumanimiz hokimi 2 xonali uyning boshlang‘ich to‘lovi sertifikatini topshirdi. O‘zbekiston boks federatsiyasi tomonidan avtomobil sovg‘a qilindi.

Nigina chempionatda Hindiston, Tailand, Rossiya va Ukrainadan kelgan bokschilar bilan murosasiz kurashib, ularning barchasini mag‘lub etdi.

U shug‘ullanadigan boks zali zamonaviy emas, ammo bor imkoniyatdan foydalanib, bu yerda shug‘ullanayotgan yoshlar orasidan 10 dan ortiq Osiyo, 30 dan ortiq O‘zbekiston chempionlari yetishib chiqqan.



Shuningdek, 4 nafar bokschi jahon chempionatida qatnashib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan.

– Zalimiz judayam eski, lekin bu mashg‘ulotlarimizga xalaqit bermaydi, - deydi qahramonimiz. - Axir boks qiroli deb ta’riflanadigan Tayson ham yerto‘lada shug‘ullanib shu darajaga yetgan-ku. Muhimi, maqsad sari harakat!

Nigina O‘ktamova bu yutuq bilan chegaralanib qolmasdan, yana o‘z ustida ishlayapti. 2024-yil Fransiyada o‘tkaziladigan jahon chempionatiga hozirdanoq tayyorgarlikni boshlab yuborgan.

**Sabrina KOMILOVA.**

# Ular Yaponiyaga boradi

***XXXII yozgi Olimpiya o‘yinlari 2021-yil 23-iyuldan 8-avgustgacha Yaponiyaning Tokio shahrida bo‘lib o‘tadi. Unda dunyoning 200 dan ortiq mamlakatidan 12 ming 500 ga yaqin sportchi ishtirok etadi.***

Samarqandlik sportchilar mazkur tadbirda ishtirok etish uchun 12 ta yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

Olimpiada va paralimpiadada qatnashadigan samarqandlik sportchilar bilan tanishing.

Fanat Qahramonov (boks 75 kilogramm vaznda).
Mo‘minjon Abdullayev (yunon-rum kurashi, 130 kilogramm vaznda).
Sobirjon Safaraliyev, (akademik eshkak eshish).
Kseniya Aleksandrova, (badiiy gimnastika).
Davlat Bobonov, (dzyudo, 90 kilogramm).
Diyora Keldiyarova, (dzyudo 52 kilogramm).
Sardor Nurillayev, (dzyudo 66 kilogramm).
Muhammad-Karim Xurramov, (dzyudo 100 kilogramm).
Ruslan Kurbanov, (yengil atletika).
Roksana Xudoyarova (yengil atletika).
Xusniddin Norbekov, (parayengil atletika).
Sabinaxon Suxanova, (parayengil atletika).

***Viloyatda 2 ta olimpiya zaxiralari kolleji, 4 ta ixtisoslashtirilgan sport maktabi, 1 ta eshkak eshish sport maktabi, 21 ta sport maktablari, 1 ta futbol mahorat maktabi va 1 ta "Dinamo" PFK futbol maktabi faoliyat yuritmoqda.***




***Urgutlik Shahzoda Ashrapovaning she'rlari gazeta va jurnallarda chop etilgan. Uning Vatan, ona, tabiat, tarixiy siymolar, ezgulik haqidagi she'rlari beg'uborlik bilan yozilgan.***

# Yosh shoiraning onasiga aytganlari

Uning yangi kitobi - "Onamga aytganlarim"dan joy olgan "Onam", "Vatan qadri", "Do'stimga", "Ko'nglim bulog'i", "O'zbekiston atalmish chaman", "Samarqand" kabi she'rlarini o'qib, uning dunyosi, ichki kechinmalari bilan o'rtoqlashasiz.

Kitobdagi hajviy she'rlar ham sizni befarq qoldirmaydi. Toshloq qishlog'ilik Shermatning hangomalari beixtiyor labingizga tabassum yugurtiradi.

Kitob muallifining shu vaqtgacha "Bobom yaratgan bog'", "Bag'ri keng dunyo", "Faxrimsan Vatan" kabi kitoblari she'riyat ixlosmandlariga taqdim etilgan. Shahzodaning "Onamga aytganlarim" she'riy to'plami yaqinda "Muharrir" nashriyotida chop etildi.

**Surayyo YALG‘ASHEVA,**
**Urgut tumanidagi 57-maktab o‘qituvchisi.**

***Bu — besh nafar o'g'il farzandning onasi, kattaqo'rg'onlik muallima Aziza Boymurodovaning gapi. Bugungi kungacha u uch o'g'lini uylantirgan bo'lsa, kelinlari sep sandig'ini chinni buyum va tilla taqinchoqlar bilan emas, kitobga to'ldirib kelgan. Bu oilaning mo‘’jazgina kutubxonasi bor.***

# "Kitob o'qigan qizni kelin qilaman"

Aziza opa tumandagi 28-maktabda direktor. Ish, uy-ro'zg'or tashvishlaridan ortib kitob o'qiydi, she'rlar mashq qilib turadi.

Uchinchi farzandi Temurbek ham kitobga va she'riyatga ko'ngil qo'yganligi uchun ona bu o'g'lini shoira qizga uylantirishni orzu qilgan edi. O'tgan yili ijodiy kechalardan birida oqdaryolik ijodkor qiz Gulhayo Anorovani uchratib qoldi va shu qizni kelin qilishni diliga tugdi. Temurbekka bu taklif ma'qul keldi. U Gulhayoni yaxshi tanirdi. Sababi, ikki yosh - kursdosh. Ular Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabalari.

– Gulhayo ham boshqa kelinlarim kabi bir sandiq kitob bilan keldi, - deydi A.Boymurodova. - Ayrim xonadonlarda oynali javonlarga chiroyli idishlar ko'z-ko'z qilib qo'yilsa, bizning oilada ular o'rniga kitoblar taxlangan turadi. Otam shanba kuni barcha farzandlarini yig'ib, hafta davomida o'qigan kitoblarimiz haqida so'rardi. Biz shu an'anani davom ettiryapmiz.

Gulhayo va Temurbek yaqinda yoshlar oyligi



doirasida tumanda o'tkazilgan "Eng yosh kitobxon oila" tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritib, viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

**Jahongir SAFAROV.**

# Конституциявий суд: нима ўзгарди?

***Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг ҳуқуқий мақоми аввало Ўзбекистон Республикаси Конституциясида мустаҳкамлаб қўйилган.***

Хусусан, Бош қомусимизнинг 108-моддаси биринчи қисмида «Ўзбекистон Республикаси Конституциявий суди қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимият ҳужжатларининг Конституцияга мувофиқлиги тўғрисидаги ишларни кўради», деб белгиланган.

Яъни, Конституциявий суд ўз фаолияти давомида Конституция устунлигини таъминлаш мақсадида, таъбир жоиз бўлса, «норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни суд қиладиган» мустақил суд ҳокимияти органи ҳисобланади.

Шу пайтгача конституциявий судда иш юритишнинг процессуал қоидалари суднинг ўзи томонидан тасдиқланган Регламент билан белгилаб берилган эди. Жорий йилнинг 27 апрель куни қабул қилинган «Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисида»ги конституциявий қонун кўпчилик мутахассисларнинг фикрига кўра мамлакатимизда конституциявий назорат институтининг янги даврини бошлаб берди.

Қонун Конституциявий судда иш юритишнинг барча процессуал босқичларни, яъни мурожаатларни дастлабки тарзда кўриб чиқиш ва ўрганиш, ишни кўриш учун қабул қилиш, суд ишларини юритиш иштирокчилари ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, суд муҳокамаси, суд қарорлари, суд мажлиси баённомаси ва бошқа ҳаракатларни тартибга солди.

Қонуннинг 8-боби Конституциявий суднинг қарорларига бағишланган.

Унга кўра, Конституциявий суд томонидан қабул қилинадиган қарорлар уч турга бўлинади: қарор, хулоса ва ажрим.

Ўзбекистон Республикаси давлатлараро шартномавий ва бошқа мажбуриятларининг Конституцияга мувофиқлиги ҳамда Конституция ва қонун нормаларига шарҳ бериш тўғрисида кўриб чиқилган ишнинг моҳияти бўйича Конституциявий суднинг якуний тўхтами қарор, деб номланади.

Шунингдек, Конституциявий суд ўз фаолиятини ташкил этиш масалалари бўйича ҳам қарорлар қабул қилади.

Конституциявий суднинг ваколатига киритилган бошқа масалалар юзасидан кўриб чиқилган ишнинг моҳияти бўйича якуний тўхтам хулоса бўлса, Конституциявий суд ишларини юритиш процессуал масалалари бўйича ажрим қабул қилинади.

Эслатиб ўтиш лозим, Конституциявий суд коллегиал орган ҳисобланиб, қарорлар очиқ овоз бериш йўли билан қабул қилинади ва бу жараён Конституциявий суд судьяларидан бирма-бир сўраб чиқиш орқали ўтказилади.

**Шохрух МАЖИДОВ,**
**Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг катта эксперти.**

# Қуёш батареяси сотиб олсангиз,
## *компенсацияга ҳам эга бўласиз*

Жаҳоннинг энг илғор мамлакатларида энерготежамкор ускуналардан фойдаланиб келинади. Бу борада юртимизда ҳам илк қадамлар қўйилмоқда. Президентимизнинг 2019 йил 22 августдаги "Иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳанинг энергия самарадорлигини ошириш, энергия тежовчи технологияларни жорий этиш ва қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантиришнинг тезкор чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори билан Вазирлар Маҳкамасининг "Энергия самарадор ва энергия тежовчи қурилмаларни харид қилиш ҳамда ушбу мақсадлар учун олинган кредитлар бўйича фоиз харажатларининг бир қисмини қоплаш учун Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан компенсация ажратиш тартиби тўғрисидаги низом" қабул қилинган эди.

Унга асосан энергия самарадор ва энергия тежовчи қурилмаларни харид қилиш ҳамда ушбу мақсадлар учун олинган кредитлар бўйича фоиз харажатларининг бир қисмини қоплаш учун Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан компенсация миқдорини ҳисоблаш ва компенсация ажратиш тартиблари белгилаб берилган.

Жумладан, жисмоний шахсларга қуёш фотоэлектрик станциялари, қуёш сув иситкичлари, шунингдек, энергия самарадор газ-горелкали қурилмаларни сотиб олиш харажатларининг 30 фоизи миқдорида қоплаб берилади. Яъни, қуёш фото электр станциялари учун 3 миллион сўм, қуёш сув иситкичлари учун 1,5 миллион сўм, энергия самарадор газ-горелкали қурилмалар учун 200 минг сўмдан ошмаган миқдорда тўлаб берилади.

Шунингдек, қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмалари, энергия самарадор газгорелкали қурилмалар ва қозонлар, энергия самарадор бошқа ускуналарни харид қилиш учун олинган тижорат банкларининг кредитлари бўйича фоиз харажатларининг бир қисми қопланади. Жумладан, ҳам жисмоний, ҳам юридик шахсларга – 500 миллион сўмдан ошмайдиган кредитлар бўйича Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкасидан ошган қисмида, бироқ 8 фоиз пунктидан кўп бўлмаган миқдорда тўлаб берилади.

**Акрам БОБОЕВ,**
**"Ўзэнергоинспекция" Самарқанд ҳудудий бўлими бош мутахассиси.**

# Эзгу амали билан улуғланган инсон

**Айрим инсонлар ҳадиси шарифда айтилганидек, ақлини танигандан умрининг охиригача доимо илм излаш, камол топиш ва эгаллаган фаолият соҳасига фидойилик билан ёндашиш ҳаракатида бўлади. Бутун ҳаётини суд-ҳуқуқ тизимига бағишлаган Илҳом Қобилов ҳам ана шундай инсонлардан эди.**



Афсус, бугун у орамизда йўқ. Аммо унинг ибратга тўла ҳаёти, эзгу амаллари йиллар ўтса ҳамки, ўзининг қадр-қимматини йўқотмайди. И.Қобилов доимо қалбларда сақланиши, мангу яшашига айни шу жиҳатлар сабаб.

Тажрибали ҳуқуқшунос касбига муҳаббати туфайли шарафли касбнинг фидойисига айланди. Унинг катта ҳаёт саҳнасида ўз ўрнини топишида устозлари - Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ҳуқуқшунос А.Юнусов, З.Алиев, А.Тўхташев, Ҳ.Назаров А.Ҳусеновларнинг ўгитлари ва маслаҳатлари катта рол ўйнаган. У буни доимо фахр билан тилга олар, уларнинг ҳаққига дуо қиларди.

Аслида устоз-шогирдлик анъаналари, ўзаро муносабатлари ўзгача тус олаётган бугунги кунларда И.Қобиловнинг устозларига меҳри ва садоқати алоҳида таҳсинга лойиқ. Балки айни шу сабаб унинг ўзи ҳам бир қанча ёшларга устозлик қилган. Бугун у кишини устоз деб билиб, соҳанинг сир-асрорларини пухта ўрганган кўплаб шогирдлари ҳуқуқ-тартибот органларида касбига садоқат билан хизмат қилиб келмоқда.

Ҳаётда ҳам иш, ҳам оила, қолаверса яқинлари билан муносабатларда олтин ўрталикни топиш ҳаммага ҳам насиб қилавермайди. И.Қобиловга бу борада омад кулиб боққан, Худо тақдирдан қарашган эди. У оилада фарзандларининг таянчи ва суянчи, яқинлари ҳамда шогирдларининг маслаҳатгўйи эди.

– Шахс сифатида камолга етишимда энг катта вазифани падари бузрукворим бажарган, - дерди И.Қобилов. - Негаки, касби педагог отамнинг шахсий ибрати ва доимий терғаб туриш ортидан илм олишга интилдим, одамларга яхшилик қилишни бурчим деб билдим. Шу туфайли Самарқанд шаҳридаги 11-мактабни битиргач, азим шаҳарнинг ИИБ қўриқлаш бўлимида меҳнат қилдим.

И.Қобилов кейинчалик собиқ иттифоқ армиясида йигитлик бурчини ўтаб қайтган. Илм олишга интилиш, одамлар оғирини енгил қилишга бўлган иштиёқ туфайли Самарқанд давлат университетининг ҳуқуқшунослик факультетига ўқишга кирган.

Олий маълумотли бўлиш бошқа-ю қайсидир бир тизимда самарали ишлаш, унда ўзини кўрсатиш, қобилиятларини намоён қила олиш бошқа. Бу борада И.Қобилов айрим тенгдошларига ибрат бўлгани шубҳасиз. Негаки, у Сиёб тумани ИИБда терговчи, кейинчалик Каттақўрғон шаҳар суди судьяси, суд раиси бўлди. Фаолияти давомида Самарқанд ва Тошкент шаҳарлари судлари раисларининг ўринбосари сифатида самарали меҳнат қилди.

У Олий судда, Адлия вазирлигида турли лавозимларда хизмат қилганда ҳам халқ манфаатини асосий ўринга қўйиб жонбозлик кўрсатди.

- Инсон тақдирини ҳал қилувчи судья кенг дунёқарашли, мулоҳазали, ҳаётий тажрибали ва билимли бўлиши лозим, - дерди И.Қобилов. - Бунинг учун, ҳуқуқий адабиётлар, қонунларни ўрганиб бориш билан биргаликда мунтазам равишда бадиий адабиёт билан ошно бўлиб, дунёқарашини, маънавиятини ошириши лозим.

Бугун отамнинг шахсий ҳаёти ибрат экани, унинг дили ва тили доим эзгуликка эш бўлганини, шу туфайли дилларда мангу яшаётганини англаб етдим.

**Ислом ҚОБИЛОВ.**

**REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56**

### ДАЪВОЛАР БЎЛСА

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Хўжамқулов Ҳусан Ўринбоевич нотариал идорасида марҳум Рахманова Шарофат Амоновнага (2020 йил 18 декабрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Хўжамқулов Ҳусан Ўринбоевич нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Спитамен шоҳкўчаси, 272-уй. Мўлжал: Самарқанд вилоят ИИБ ЙҲХБ, шаҳар мудофаа ишлари бўлими.**

* * *

Пайариқ туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ортиқбоев Азиз Азаматович нотариал идорасида марҳум Мирзаев Музаффар Шокировичга (2021 йил 12 январда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилган. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Ортиқбоев Азиз Азаматович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Пайариқ тумани Челак шаҳарчаси, Истиқлол кўчаси, 73-уй.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Алиева Лола Заировна нотариал идорасида марҳум Одилов Амониллога (2016 йил 10 августда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Алиева Лола Заировна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Мирзо Улуғбек кўчаси, 80-уй.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Бобомуродов Пирмамат Исомидинович нотариал идорасида марҳум Рахманов Шухрат Абдуганиевичга (2020 йил 8 октябрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Бобомуродов Пирмамат Исомидинович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Амир Темур кўчаси, 108-уй.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Алиева Лола Заировна нотариал идорасида марҳум Ширинова Мархабо Бердалиевнага (2021 йил 16 майда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Алиева Лола Заировна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Мирзо Улуғбек кўчаси, 80-уй.**

* * *

Жомбой туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Маматқулов Отабек Болбекович нотариал идорасида марҳум Абсалямова Мария Александровнага (2018 йил 20 октябрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Маматқулов Отабек Болбекович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Жомбой тумани Сарой кўчаси, 15-уй.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Бахрамова Феруза Заировна нотариал идорасида марҳум Алиев Искандар Хамракуловичга (2015 йил 24 январда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Бахрамова Феруза Заировна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Амир Темур кўчаси, 108-уй.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Исмоилова Шаҳло Баҳриллоевна нотариал идорасида марҳум Файзуллаева Мехрига (2020 йил 26 июлда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Исмоилова Шаҳло Баҳриллоевна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Абдураҳмон Жомий кўчаси, 17-уй.**

* * *

Жомбой туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Мирзаева Барно Жўракуловна нотариал идорасида марҳум Кабулов Зокир Эшназаровичга (2021 йил 13 январда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Мирзаева Барно Жўракуловна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Жомбой тумани Тошкент кўчаси, туман давлат хизматлари маркази биносида.**

* * *

Паст Дарғом туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Хамидов Норбек Комил ўғли нотариал идорасида марҳум Нарзиева Клара Шароповнага (2020 йил 1 октябрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Хамидов Норбек Комил ўғли нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Паст Дарғом тумани Жума шаҳарчаси, Амир Темур кўчаси, 48-уй.**

* * *

Самарқанд шаҳар давлат хизматлари марказидан 2019 йил 13 мартда 698934 реестр рақами билан рўйхатга олинган «ROBERTO CAVALLI» оилавий корхонаси (қисқартирилган номи: «ROBERTO CAVALLI» OK) корхона таъсисчиларининг 2021 йил 28 июндаги қарорига асосан ихтиёрий равишда тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Корхонанинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Самарқанд шаҳри Панжакент кўчаси, 280-уй.**

Корхонанинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 306235217.

* * *

Самарқанд шаҳридаги «CROSS PROJECT" масъулияти чекланган жамияти (СТИР: 304998384) ўз устав фондини 25 000 000 (йигирма беш миллион) сўмдан 500 000 (беш юз минг) сўмга камайтирмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча даъволар газетада эълон чоп этилгач, бир ой давомида қабул қилинади.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Буюк Ипак йўли кўчаси, 112-"А" уй.**

* * *

Самарқанд шаҳридаги «AZ DIL TEKS» хусусий корхонаси (СТИР: 301205534) ўз ташкилий-ҳуқуқий шаклини «AZ DIL TEKS» оилавий корхонасига ўзгартиради. «AZ DIL TEKS» оилавий корхонаси «AZ DIL TEKS» хусусий корхонасининг барча ҳуқуқ ва мажбуриятлари бўйича ҳуқуқий вориси ҳисобланади.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча даъволар газетада эълон чоп этилгач, бир ой давомида қабул қилинади.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Абдураҳмон Жомий кўчаси, 106-уй.**

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 405 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Оқдарё туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Оқдарё тумани, Лойиш шаҳарчаси, Зарафшон кўчаси, 1-уй.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296444.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 408 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Пахтачи туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Пахтачи тумани, Зиёвиддин шаҳарчаси, Истиқлол кўчаси, 68-уй.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296420.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 399 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Иштихон туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Иштихон тумани, Иштихон шаҳарчаси, Алишер Навоий кўчаси, 12-уй.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296437.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 24 апрелда 406 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Пайариқ туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Пайариқ тумани, Пайариқ шаҳарчаси, Самарқанд кўчаси, 52-уй.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296286.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 409 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Ургут туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Ургут тумани, Ургут шаҳарчаси, Навоий шоҳкўчаси.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296413.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 403 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Нарпай туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Нарпай тумани, Оқтош шаҳарчаси, Фидокор кўчаси, 1-уй.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296476.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 396 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Тойлоқ туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Тойлоқ тумани, Олмазор маҳалласи, Ёшлик кўчаси, 3-уй.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296358.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 395 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Самарқанд туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Самарқанд тумани, Мирзо Улуғбек маҳалласи.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296634.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 394 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Самарқанд шаҳар бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Самарқанд шаҳри, Чўпонота маҳалласи, 13-уй.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296680.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 398 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Жомбой туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Жомбой тумани, Жомбой шаҳарчаси, Сарой кўчаси.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296319.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 404 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Нуробод туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Нуробод тумани, Нуробод шаҳарчаси, Мустақиллик кўчаси, 1-уй.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296603.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 407 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Паст Дарғом туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Паст Дарғом тумани, Жума шаҳарчаси, Ҳамид Олимжон кўчаси, 15-уй.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296452.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 401 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Каттақўрғон шаҳар бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Каттақўрғон шаҳри, Семурғ кўчаси, 7-уй.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296627.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 397 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Булунғур туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Булунғур тумани, Каттақишлоқ МФЙ, Каттақишлоқ кўчаси, 1-уй.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296405.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда 402 реестр рақами билан рўйхатга олинган Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Қўшработ туман бўлинмаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги 5116-сонли қарорига асосан тугатилмоқда.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча эътирозлар газетада эълон чоп этилгач, икки ой давомида қабул қилинади.

**Бўлимнинг почта манзили: Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти Қўшработ тумани, Пичот МФЙ, Пичот кўчаси.**

Бўлимнинг солиқ тўлайдиган идентификацион рақами (СТИР): 207296469.

* * *

### БЕКОР ҚИЛИНАДИ

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Каттақўрғон шаҳар бўлинмасига берилган реестр рақами 401 бўлган гувоҳнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Булунғур туман бўлинмасига берилган реестр рақами 397 бўлган гувоҳнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Самарқанд вилоят адлия бошқармасидан 2019 йил 25 апрелда Республика Реабилитация ва мослаштириш маркази Самарқанд вилоят бўлими Қўшработ туман бўлинмасига берилган реестр рақами 402 бўлган гувоҳнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Нарпай туманидаги 55-умумий ўрта таълим мактабидан 2012 йилда Жўраева Шаҳноза Азамат қизи номига берилган U № 5367310 рақамли умумий ўрта таълим тўғрисидаги шаҳодатнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Пайариқ туманидаги 92-умумий ўрта таълим мактабидан 2019 йилда Ибрагимов Ҳабиб Абдувоси ўғли номига берилган UM № 0157729 рақамли умумий ўрта таълим тўғрисидаги аттестат йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Самарқанд давлат университетидан 2008 йилда Бердиева Ибодат Эркиновна номига берилган рўйхат рақами 2185, B № 403712 рақамли дипломнинг иловаси йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Самарқанд кооператив институтидан (ҳозирги Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтидан) 1992 йилда Ахмедова Мукаррам Эргашевна номига берилган рўйхат рақами 274816, ФВ № 935847 рақамли диплом ва унинг иловаси йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Самарқанд автомобиль ва йўллар касб-ҳунар коллежидан 2020 йилда Эгамбердиев Камрон Нуриллоевич номига берилган K № 5894517 рақамли диплом ва унинг иловаси йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

**(Газетамизнинг навбатдаги сони 3 июль, шанба куни чиқади).**

Zarafshon

Самаркандский вестник

MUASSIS: «Zarafshon» va «Самаркандский вестник» gazetalari tahririyati mas'uliyati cheklangan jamiyati

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

*Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 156 nusxada chop etildi. Buyurtma 467*

***Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.***



*Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2*

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**
**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100,** Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi. «Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy. Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:** G'.HASANOV.
**Navbatchi:** Y.MARQAYEV.
**Sahifalovchi:** B.ABDULLAYEV.

Sotuvda narxi kelishilgan holda

ISSN-201667X